

**Psixologlarni tayyorlashda foydalaniladigan psixodiagnostik metodikalarni
kompyuterlashtirish va amaliyotga tadbqiq etish****Mamajonova Shaxzodaxon Yoqubjon qizi**

“Tashkent International University of
Education” xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Butun jahonda rivojlanish jadal suratlarda o'sib borayotgani tufayli yuqori texnologiyali mahsulotlar, jumladan, zamonaviy kasbiy bilimlar va eng yangi texnologiyalardan foydalanayotgan mamlakat ustunlikka erishmoqda. Axborot, ijodkorlik va bilimning axborot jamiyatida strategik resurs vazifasini bajarishining sababi ham shu. Iste'dodlar yaratilishi uchun esa madaniyatning shakllanishi, ya'ni iste'dodlarning rivojlanishi va ravnaq topishi uchun sharoit zarur. Bu yerda kompyuter texnologiyalarining ta'siri juda katta bo'lib, masofaviy ta'lim, kompyuter dasturlari, kompyuter o'yinlari, videolar va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: psixodiagnostika, psixometrika, axborot texnologiyalari, kompyuter dasturlari, ishonchlilik, validlilik, standartlashtirish, optimallashtirish.

Bugungi kunda bizning sharoitimizda ham psixodiagnostik tadbirlarda sifat bosqichiga erishish uchun mavjud tajribalarga tayanib, mahalliy mutaxassislar tomonidan bir qator masalalar qayta ko'rib chiqilishi lozim:

1. Jahon psixologiyasida qo'llanilib kelayotgan —Standartlarlga tayanib, psixodiagnostik metodikalardan foydalanish borasida mahalliy muhit uchun aniq ko'rsatmalar ishlab chiqish;



2. Psixodiagnostik metodikalarni psixometrik mezonlarini o'lchashda aniq, optimal natijaga erishish uchun zamonaviy IT dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

3 Mutaxassislar tayyorlash jarayonida umumiy psixodiagnostika, psixodiagnostika va Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni mvzusidagi xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022, 15-iyul 449 eksperimental psixologiya, psixodiagnostik metodikalar va psixometrik mezonlarini o'lchash hamda test va ularning standartlari masalasi uchun alohida mashg'ulot mavzulari ajratish lozim.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017 yil 14 yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida —... ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishll masalalariga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab o'tganlar. Psixodiagnostik metodikalar qo'llanilishidan oldin yuqori sifat va samaradorligini ko'rsatuvchi mezonlar asosida tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

Bizga ma'lumki, psixologlarni tayyorlashda foydalaniladigan psixodiagnostik metodikalarni baholashning asosiy mezonlari sifatida ishonchilik va validlik olinishi mumkin. Validlik - metodika yordamida olingan ma'lumotlarning metodikaning nimani aniglashga qaratilganligi, ya'ni metodika mohiyati bilan mosligi. Ishonchlilik - psixodiagnostik metodikaning sifati bo'lib, natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko'rsatuvchi mezon. Metodikaning ishonchliligi natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi. Haqiqatdan ham diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish, standartlashtirish ularning ommaviyligini ta'minlaydi, tekshiriluvchiga eksperimentator shaxsining va test o'tkazish sharoitining o'zgaruvchanligi ta'sirini kamaytirish hisobiga natijalarning ob'ektivligi va ishonchliligini oshiradi. Yuqori darajada esa natijalar sifat jihatdan tahlil qilinadi va kompyuter dasturi yordamida interpretatsiya



qilinadi. Kompyuterlashtirilgan diagnostikaning ustunlik tomonlari uning o'ziga xos metodikalarni ishlab chiqish muammosini qo'yadi. Bu borada yechilmagan juda ko'p masalalar mavjud. Shunday masalalardan biri qo'llanilib kelayotgan, o'zining samaradorligini amalda isbotlagan metodikalarni kompyuterlashtirishdir. Shu sababli an'anaviy va avtomatlashtirilgan (kompyuterlashtirilgan) metodikalarning natijalarini taqqoslashga doir tadqiqotlar o'tkazish juda muhim. Kompyuterlashtirilgan diagnostikaning ustunlik va bir qator chegaralanganligini tahlil qila turib shuni aytish mumkin, to'g'ri tashkil qilingan holda (kompyuterda ishlashga oldindan o'rgatish, kiritilgan javobni to'g'rilash imkonini berish, natijalarni kompyuter dasturida tahlil qilish va h.k.) an'anaviy va kompyuterlashtirilgan (avtomatlashtirilgan) metodikalar natijalari orasida yuqori korrelyasiya mavjud. Psixodiagnostikada zamonaviy kompyuterlarning informatsiyani tejamli ko'rinishda saqlash, tezda chaqira olish, tezkor va har tomonlama tahlil qilish va ko'rgazmali ravishda aks ettira olish imkoniyatlaridan foydalanish turli sifat, miqdor ko'rinishda samaralar beradi. Birinchi toifa miqdor samaralar asosan an'anaviy psixodiagnostik eksperimentdagi ko'rsatma Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rnini muvazinsiz xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022, 15-iyul 450 berish, metodikalarning topshiriqlar bazasini shakllantirish, topshiriqlarni saralash, ularning murakkablik darajasi va indeksi, diskriminatsiya koeffitsienti va indeksini, reprezentativ tanlanmalarni saralash, tekshiriluvchining javoblarini qayd qilish, eksperiment bayonini olib borish, ishonchlilik va validlikni ta'minlashda turli hisoblashlarni amalga oshirish, va natijalarni berish va shunga o'xshash sarmashaqqat, qiyin amallarni avtomatlashtirish bilan bog'liq. Bunday avtomatlashtirish natijasida psixodiagnostik tadqiqotlar yoki psixologik maslahatlar uchun zarur diagnostik natijalarning standartlik darajasi, aniqligi va olinish tezligi oshadi. Bundan tashqari kompyuterlashtirilgan eksperimentlar ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash juda qisqa muddatlarda ommaviy psixodiagnostik, shu jumladan vaqt va boshqa imkoniyatlar yetarli bo'lmagan sharoitlarda kasbga yo'naltirish, kasb tanlash kabi psixologik vazifalarni yechish uchun juda zarur, tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi.



Shunday qilib, hozirgi vaqtda psixodiagnostikada axborot texnologiyalarining qo'llanilishi asosan alohida metodikalarning kompyuterlashtirilgan variantlarini yaratish hamda psixodiagnostik metodikalarni psixometrik mezonlarini o'lchashni avtomatlashtirish tariqasida olib borilmoqda. Ammo shuning o'zida ham amaliy psixodiagnostika uchun ijobiy samara kuzatilmoqda. Birinchidan, diagnostik natijalarni tez olish, tekshirish va maslahat berish kabi sohalarda juda zarur bo'lib qoldi. Ikkinchidan, psixolog tekshiriluvchiga ko'rsatma berish, vazifani ko'rsatish, javoblarning to'g'riligini tekshirish, eksperiment bayonini olib borish va javoblarni qayta ishlash amallardan xolos bo'ladi va o'z oldiga qo'ygan vazifani echishga butun kuchini safarbar qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Uchinchidan — qo'lda, an'anaviy usulda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar, javoblarni bexato qayd qilish va natijalarni to'g'ri qayta ishlash katta ahamiyatga ega. To'rtinchidan, kompyuterli eksperimentda ma'lumotlarni qayta ishlash qisqa muddatlar ichida ko'p tekshiriluvchilarda parallel test o'tkazish yo'li bilan ommaviy psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi. Yuqorida sanab o'tilganlar hisobidan psixodiagnostik metodikalarni kompyuterlashtirish psixodiagnostik eksperimentning sifatini oshirish va ularga sarf qilinadigan xarajatlarni kamaytirishga ijobiy ta'sir qiladi. Psixologlar, amaliyotchi psixologlar va psixodiagnostlar uchun ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash bo'yicha metodik va amaliy yordam tizimini yaratish, shuningdek, oliy ta'limi jarayonida fanlararo integratsiya asosida diagnostik usullarni axborot kommunikatsion vositalar orqali dasturiy ta'minot manbalariga doir ma'lumotlardan psixologiya fanlarini o'qitishda foydalanib, ta'lim-tarbiya berish mazmuni, shakl va metodlari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, o'qitish metodikasini yaratish lozim.

Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rnini muvazisidagi xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022, 15-iyul 451 Keyingi o'n yilliklarda psixologik tadqiqotlarda kompyuterlarni keng qo'llash yanada rivojlandi. Psixologik eksperimentlarda kompyuter dasturlarining qo'llanilishi an'anaviy usulga



qaraganda bir qancha ustunliklarga ega. Ularga quyidagilar kiradi: - psixologni mashaqqatli, bajarilishi og'ir ishlardan (vazifalarni taqdim qilish, tekshiriluvchining javoblarining to'g'riligini tekshirish, eksperiment bayonini olib borish, test natijalarini qayta ishlash) ozod qilishi; - metodikalarning topshiriqlar bazasini shakllantirish, topshiriqlarni saralash, ularning murakkablik darajasi va indeksi, diskriminatsiya koeffitsienti va indeksini ishlab chiqishda optimal natijaga erishish; - eksperimental materiallarni randomizatsiya qilish (tasodifiy ketma-ketlikda taqdim qilish); - qisqa vaqt oralig'ida keng masshtabli psixologik tadqiqotlar o'tkazish imkoniyati; - olingan natijalarni qayta ishlash va umumlashtirishda o'ta kuchli matematik apparatdan foydalana olish imkoniyati; - diagnostik natijalarni tez olish, bu, ayniqsa, klinik holatlar va psixologik maslahat berish uchun zarur; - kompyuter dasturi yordamida psixolog ishonchlilik va validlilikni ta'minlashda turli hisoblashlarni amalga oshirish, va natijalarni berish va shunga o'xshash sermashaqqat, qiyin amallarni avtomatlashtirishi mumkin bo'ladi; - ma'lumotlar banki (bazasi)ni yaratish. Ma'lumotlar bazasining mavjudligi, undagi ma'lumotlarni saralash, tahlil qilish imkoni psixodiagnostika uchun katta yutuq hisblanadi. Ma'lumotlar bankini yaratish qisqa vaqt oralig'ida ishonchli, empirik jihatdan asoslangan test me'yorlarini shakllantirish imkonini beradi. - kompyuterlashtirilgan psixodiagnostikaning maqtovg'a loyiq yana bir tomoni avtomatik tarzda keng va asoslangan psixodiagnostik xulosani verbal ko'rinishda shakllantirishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.I.Ikromov —O'zbekistonda psixodiagnostikaning rivojlanish tarixi. Toshkent.-2021
2. Z.Nishonova, Z. Qurbonova Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya T- 2014 3
3. Pedagogika, 1982 3. Akindinova I.A. Osobennosti samoaktualizatsii lichnosti v professiyax razlichnogo urovnya sotsialnogo prestija: Avtoref. dis. ... kand. psixol. nauk. — SPb.: SPbGU, 2000. — 24 s.



4. Berulava G.A. Psixodiagnostika umstvennogo razvitiya uchashixsya: uchebnoe posobie. Novosibirsk. 1990. Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022 15-iyul 452 5. S
5. X Jalilova, N.A G'ayibova —Umumiy psixodiagnostikall. O'quv qo'llanma. Toshkent,2018